

Level [Elektron resurs]. – Paris, 2024. – Kirish rejimi: <https://www.oecd.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

5. UNTourism. Tourism Data Dashboard [Elektron resurs]. – 2024. – Kirish rejimi: <https://www.unwto.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

6. World Leisure Organization. Monitoring Sustainability in Tourism: INSTO Framework [Elektron resurs]. – 2020. – Kirish rejimi: <https://www.worldleisure.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

7. Alcalá-Ordóñez A. va boshqalar. Tourism Economic Indicators and Destination Management Framework // Management Review Quarterly. – 2026.

8. UNTourism Dashboard: Monitoring Global Tourism Recovery [Elektron resurs]. – 2024. – Kirish rejimi: <https://www.unwto.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

Saydullo YULDASHEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Nilufar BATIROVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD

INSON KAPITALI VA “YUMSHOQ KUCH” OMILI ORQALI TURISTIK JOZIBADORLIKNI OSHIRISH: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda Dog‘istonda kuzatilayotgan turizmning keskin o‘shish sur‘atlari, buning omillari hamda Xabib Nurmagomedov va jamoasining shaxsiy brendi orqali Dog‘istonda sport, ekologik hamda ziyorat turizmining rivojiga qo‘shayotgan o‘rni haqida to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbekiston va Dog‘iston o‘rtasidagi tarixiy va madaniy o‘xshashliklar, turistik resursalar tahlil qilinib, Dog‘iston tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: turistik bum, yumshoq kuch, role model, turizm elchisi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются высокие темпы роста туризма в Дагестане, наблюдаемые в последние годы, а также факторы, способствующие этому процессу. Особое внимание уделяется роли личного бренда Хабиба Нурмагомедова и его команды в развитии спортивного, экологического и паломнического туризма в Дагестане. Анализируются исторические и культурные сходства между Узбекистаном и Дагестаном, а также туристические ресурсы двух регионов. На основе исследования предлагаются рекомендации по применению опыта Дагестана в развитии туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: туристический бум, мягкая сила, ролевая модель, посол туризма.

Abstract. This article discusses the rapid growth of tourism in Dagestan in recent years, the factors behind it, and the role of Khabib Nurmagomedov and his team in the development of sports, ecological, and pilgrimage tourism in Dagestan through their personal brand. It analyzes the historical and cultural similarities and tourism resources between Uzbekistan and Dagestan, and offers recommendations for applying the experience of Dagestan to Uzbekistan.

Keywords: touristic boom, soft power, role model, tourism ambassador.

Bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining eng barqaror rivojlanib

borayotgan sohalaridan biri turizm bo‘lib qolmoqda. Davlatlar o‘z turistik salohiyatini namoyish etuvchi an’anaviy marketing usullari bilan bir qatorda, individual shaxslarga tayangan marketing siyosatini ham yuritishmoqda. Bunda inson omili, shaxsiy brend, madaniyat elchisi kabi targ‘ibot usullaridan keng foydalanilmoqda. Hususan olamga mashhur sport yulduzlarining “yumshoq kuch” (soft power) sifatidagi rolining ahamiyati ortib bormoqda.

Mazkur maqolada Dog‘iston Respublikasi misolida sport yulduzlarining mahalliy turistik brend, davlat imiji hamda umumiy hudud turizmiga bo‘lgan ta‘sirini tahlil qilinadi. O‘zining ko‘plab tabiiy, tarixiy, madaniy va etnografik turistik resurslari bo‘lishiga qaramay Dog‘iston uzoq vaqt davomida turistlar uchun “yopiq” va ba‘zan “xavfli” hudud sifatida talqin qilib kelindi. Lekin hukumat tarafidan turizmni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan kompleks chora-tadbirlar oqibatida COVID-2019 pandemiyasidan keyingi davrda mamlakat turizmi juda tez rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanishga sabab bo‘lgan ko‘plab omillar qatorida sport hamda media olamida katta mashhurlik va hurmatga ega bo‘lgan Xabib Nurmagomedov va u kabi sportchilarning ham o‘rni beqiyos. Uning sportda erishgan yutuqlari va shaxsiy insoniy fazilatlarini evaziga uni o‘zi uchun “role model” sifatida ko‘ruvchi insonlar qatlami shakillandi. Shu bilan bir qatorda insonlarda nafaqat uning shaxsiga, balki shunday qadriyatlar saqlab kelinayotgan Dog‘istonga nisbatan ham katta qiziqishni uyg‘otdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ham o‘z turistik brendini xalqaro mashhurligini oshirish yo‘lida yangidan-yangi chora-tadbirlarni qo‘llamoqda. Mamlakatning boy tarixi, islomiy merosi, olamga mashhur allomalari va rang-barang tabiatini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilinar ekan, bu borada Dog‘iston tajribasidan, hususan “Xabib effekti”dan foydalanishi maqsadga muvofiq. Yurtimizda ham sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘plab olimpiada va jahon chempionlari yetishib chiqqan. Hususan jahon maydonlarida O‘zbekiston nomini tanitayotgan Abduqodir Xusanov kabi sportchilarning o‘rni beqiyos. Xusanov nafaqat iqtidorli sportchi sifatida, balki o‘zining kamtarligi, madaniyati va professionalizmi bilan Xabib Nurmagomedov modeliga yaqin turuvchi “Milliy Brend elchisi” sifatida talqin qilishimiz mumkin.

Biz yoritmoqchi bo‘lgan mavzu Dog‘iston va O‘zbekiston turizmining rivojlanishida shaxsiy brend va “yumshoq kuch” omillarining ahamiyati haqida ekan, avvalo “hududiy branding” tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Saymon Anholt (Simon Anholt) “milliy branding” tushunchasining asoschilaridan hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra mamlakatning xalqaro imidjini faqatgina reklama bilan emas, balki o‘sha mamlakatdan yetishib chiqqan insonlar va ularning yutuqlari bilan ham shakillanadi.²³⁹

Marketingning “ota”si hisoblangan Filip Kotler (Philip Kotler) hududning jozibadorligini oshirishda mashhur shaxslar muayyan hududning “tirik ramzi”ga aylanishini ta’kidlaydi. Hududning imidjini oshirishda esa, mazkur hududan chiqqan insonlarning yutuqlari va xulq-atvorlari muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.²⁴⁰

²³⁹ Anholt S. Nation Brands of the Twenty-First Century. (1998) Journal of Brand Management <https://doi.org/10.1057/BM.1998.30>

²⁴⁰ Kotler, P., Haider, D. H., & Rein, I. (1993). Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. Free Press.

Sport tadbirlarining muayyan hududda turizm rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri haqida Filippo Bazanella (Filippo Bazanella) va bir guruh olimlar o'z tadqiqotlarida batafsil to'xtalib o'tadilar.²⁴¹ Mazkur olimlar sport tadbirlari va turizm o'rtasidagi bog'liqlikni 20 yillik kesimda (2000–2020 yy.) dunyo miqyosida tizimli o'rgangan bo'lib, sport tadbirlari hududiy turizm uchun o'ziga xos aktivlar sifatida baxolashgan.

Turizmدا “yumshoq kuch” (soft power) omili haqida ko'plab limiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, biz maqolamizda Jozef Nayning (Jozef Nay) tadqiqotlariga murojaat qildik. Unga ko'ra yumshoq kuchning uch manbasi bo'lib, madaniyat, siyosiy qadriyat va tashqi siyosat deb keltiriladi. Sport bu madaniyatning bir qismi bo'lib, mashhur sportchilar o'z madaniyatlarining elchisi sifatida talqin qilinishi mumkin.²⁴²

Halol turizmning asosiy elementi bu turistlar uchun tashrif buyurilayotgan mamlakatning “qadriyatlarga asoslangan muhit”ga egaligidir. Muhammad Battur (Mohamed Battour) hamda Mohd Nazari Ismoil (Mohd Nazari Ismail) halol turizm bo'yicha yetakchi tadqiqotchilar sifatida, sportchining islomiy qadriyatlari va umuminsoniy fazilatlarini, shu sportchi mansub bo'lgan madaniyat va mamlakatga turislarning oqimiga bevosita ta'sir o'tkazishini ta'kidlab o'tishgan.²⁴³

Dog'iston turizmi va istiqbollari haqida Eldar Eldarov hamda Sabina Axmedxanova kabi tadqiqotchilarning ishlariga hamda bir qator rasmiy statistik manbalarga murojaat qilindi.²⁴⁴

Bevosita Xabib Nurmagedovning UFC tizimiga qo'shgan hissasi, uning jahon hamjamiyatida qadriyatli “role model” sifatida qabul qilinishi, hamda bu Dog'iston Respublikasi turizmini rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri haqida Abdul Yazid (Abdul Yazid), Muhammad Basirul Muvid (Muhamad Basyrul Muvid), Muhammad Daffa Izulhaq (Moh. Daffa Izulhaq) va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borishgan²⁴⁵.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida qiyosiy tahlil va Dog'istondagi so'nggi yillardagi turistik o'sish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish usullari tanlab olindi. Maqolaning asosiy maqsadi – sport yulduzlarining shaxsiy imidji va qadriyatlar tizimi orqali O'zbekistonning ziyorat va sport turizmi salohiyatini global darajaga ko'tarish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Dog'iston so'nggi yillarda turizm sohasida misli ko'rilmagan o'sishga erishmoqda.

²⁴¹ Bazzanella F. Schnitzer M. Peters M. Fabian B. The role of sports events in developing tourism destinations: a systematized review and future research agenda. (March 2023) *Journal of Sport & Tourism*. DOI: [10.1080/14775085.2023.2186925](https://doi.org/10.1080/14775085.2023.2186925)


²⁴² Ooi, CS. (2024). Soft Power. In: Jafari, J., Xiao, H. (eds) *Encyclopedia of Tourism*. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-74923-1_184

²⁴³ Battour M. Ismail M. Halal tourism: Concepts, practises, challenges and future. (December 2015) *Tourism Management Perspectives*. DOI: [10.1016/j.tmp.2015.12.008](https://doi.org/10.1016/j.tmp.2015.12.008)

²⁴⁴ Ахмедханова С.Т., Мамедова З.М. Современные реалии и перспективы развития туризма в Республике Дагестан. (2023) *Культура и цивилизация*. DOI: [10.5281/zenodo.10609783](https://doi.org/10.5281/zenodo.10609783). Eldarov E. Theory and practice of the religious tourism in Dagestan. (2020) *International Journal of Sciences and Research*. DOI: [10.21506/j.ponte.2020.7.13](https://doi.org/10.21506/j.ponte.2020.7.13)

²⁴⁵ Abdul Yazid, Muhamad Basyrul Muvid. Muslim Role Model from Khabib Nurmagedov as A Muslim Athlete in The UFC World. (2024) *Abdurrauf journal of islamic studies (ARJIS)*. DOI: [10.58824/arjis.v3i2.117](https://doi.org/10.58824/arjis.v3i2.117). Moh. Daffa Izulhaq and others. Khabib Nurmagedov: manifestation of public diplomacy and islamic identity in ufc. *The SARPASS*, Vol.01 No.02, June 2022. <https://doi.org/10.15642/sarpass.2022.1.2.149-166>

2010-2020-yillar orasida nisbatan barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, COVID-19 pandemiyasidan so'ng bu o'sish juda katta ko'rsatkichlarni qayd eta boshladi. O'sish dinamikasini tahlil qilar ekanmiz 2017-yili mamlakatga tashrif buyurgan umumiy turistlar soni 608 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yili bu ko'rsatkich 1.850 ming turistga yetdi. Bu vaqt kesimida turistlarning soni 8 barobar o'sganini ko'rsatadi. 2025-yil natijalariga ko'ra esa mamlakatga 2 milliondan ziyod turist tashrif buyurgan.²⁴⁶



1-rasm. Dog'istonga tashrif etgan turistlar o'shish dinamikasi (2017-2024)²⁴⁷

Dog'iston Respublikasida turizm rivojlanishi bilan sohaning iqtisodiy ahamiyati ham sezilarli oshganining guvohi bo'lishimiz mumkin. 2019-yili turizm xizmatlari hajmi 3.1 mlrd. rublni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yili esa bu ko'rsatkich 22.3 mlrd. rublni tashkil etdi. Qisqa vaqt oralig'ida iqtisodiy natijaning 7 barobar ortishi Dog'istonda turizm nafqat xizmat ko'rsatish sohasining, balki umumiy iqtisodiyotning asosiy drayveridan biriga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatda turizmning jadal suratlarda rivojlanishiga bir qator omillar sabab bo'ldi. Hususan hukumat tarafidan turistik infrotuzilmani rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlagani, yangi turistik marshrutlarning ishlab chiqilishi va mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun "Turizm va mehmondo'stlik industriyasi" deb nomlangan loyiha ishga tushirilgan. Sohaning institutsional bazasi mustahkamlandi. Hususan turizmni tartibga soluvchi qonun qabul qilindi, 2015-yilda Turizm Vazirligi tashkil etildi. 2019-2025-yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish bo'yicha federal dasturlarning yaratilishi soha rivojida katta natijalarni keltirdi. Bundan tashqari Kaspiy sohillari bo'yida turistik klasterlarning tashkil etilishi, Darband shahrini turistik markazga aylantirish bo'yicha katta loyihaning tuzilganligi hamda xorijiy va mahalliy investrlarning jalb etilishi ham alohida ahamiyatlidir.

Dog'iston turizmi birmuncha diversifikatsiyalashgan bo'lib, undagi asosiy yo'nalishlar diniy ziyorat turizmi, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm, etno turizm,

²⁴⁶ Туризм в Дагестане: пять лет роста и преобразований (2025).<https://mintourismrd.ru/news/turizm-v-dagestane-pjat-let-rosta-i-preobrazovanij-10899>

²⁴⁷ Muallif tomonidan "Туризм в Дагестане: пять лет роста и преобразований" maqolasi asosida tayyorlandi.

sport turizmi, sanoat turizmi, davolanish turizmini tashkil etadi.

Dog'iston turizmining rivojlanishiga yuqorida ta'kidlab o'tilgan bir qator omillar qatorida mashhur Dog'istonlik UFC jangchisi Xabib Nurmagomedovning shaxsiy brendining ta'sirini ham qo'shishimiz mumkin. Xabib Nurmagomedov zamonaviy sport olamida nafaqat yuqori natijalar ko'rsatgan atlet sifatida, balki mediada global mashhurlik va hurmatga erishgan kuchli shaxsiy brend egasi sifatida ham mashhur. U MMA dagi faoliyati davomida 29 ta jang o'tkazgan va 29 ta g'alabaga erishib rekord qo'ygan, 2018-2021-yillar davomida UFC yengil vazn toifasida chempionlikni saqlab turib, mag'lubiyatsiz holatda o'z karyerasini yakunlagan.

Shu bilan bir qatorda Xabib butun dunyoga sportdagi intizomi, mehnatsevarligi, kamtarligi va o'z raqiblariga nisbatan hamisha xurmatda bo'lishi bilan ijobiy imidj orqali tanildi. Ayniqsa u o'z janglaridan oldin yoki keyin o'zining diniy mansubligini ochiq namoyish etishi, intervyularda islomiy qadriyatlarini tarannum etishi, ota-onaga hurmat, insoniy fazilatlarining birinchi o'ringa qo'yilishi kabi munosabatlari bilan dunyo jamoatida musulmon sportchisining ijobiy obrazini shakllantirdi.

Natijada Xabib Nurmagomedov nafaqat mashhur atlet, balki keng jamoatchilik uchun "role model" sifatida qabul qilindi. Uning shaxsiy brendi Dog'iston mamalakati, madaniyati va tabiatiga xalqaro miqiyosda qiziqish uyg'otdi.

Bu holat Xabib Nurmagomedovning katta sportni tark etishi bilan yakunlangani yo'q. Uning jamoadoshi Islam Maxachev Xabib o'rnini har bir jabhada egalladi. U UFCda 2022-yildan to bugungi kungacha yengil vaznda chempion bo'lib kelmoqda. Shaxsiy natijasi 28 ga'abaga va 1 mag'lubiyatdan iborat. Intizom, mehnatsevarlik, raqiblariga hurmat, islomiy qadriyatlarining ustunligi, kamtarlik va boshqa hislatlari bilan u Xabib boshlab bergan yo'lni to'liq davom ettirmoqda.

Xabib va uning jamoasi UFC olamida qariyb 8 yildan beri yetakchilik qilib kelayotgani, jamoaning ko'plab vakillari turli vazn toifalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishayotgani – "Dog'iston sport maktabi" degan brendni shakllantirdi va insonlar orasida hurmat va e'tirofga sabab bo'ldi. Intervyulardan birida Islam Maxachevdan "qanday qilib sportchi sizlar kabi yuqori natijaga erishsa bo'ladi?" ma'nosidagi savolga "Send him to Dagestan for 2-3 years and forget!" – deb javob beradi. "Uni 2-3 yilga Dog'istonga yuboring va natijani keyin ko'rasiz" mazmunidagi bu javobi ijtimoiy tarmoqda juda keng tarqaldi va bugungacha Dog'iston sport maktabi yuqori darajadagi sportchilarni shakllantiruvchi o'ziga xos ijtimoiy-madaniy va tayyorgarlik muhitining mavjudligini ramziy tarzda ifodalaydi.²⁴⁸

Xabib va uning jamoadohlari Dog'istonda sportning ayniqsa yakkakurashlarning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shib kelmoqda. Mamlakatning turli hududlarida maxsus sport komplekslari bunyod etilganligi, yosh sportchilar o'zlarini ko'rsatishi uchun "Eagle FC" kabi sport platformalarining yaratilganligi va turli mahalliy va xalqaro musobaqalarning muntazam tashkil etilayotganligi Dog'istonda sport va sport turizmning rivojida salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

²⁴⁸ 2–3 Years and Forget: The Travel Guide to Train in Dagestan. <https://gladiusfight.com/blogs/articles/2-3-years-and-forget-the-travel-guide-to-train-in-dagestan>

Dog‘iston turizmini mashhur sportchilarning shaxsiy brendi va mediadagi ta‘siri orqali targ‘ib qilinayotgan modelidan O‘zbekistonda ham foydalanish imkoniyatlarimiz yetarlicha. Avvalo O‘zbekiston ham huddi Dog‘iston singari umumiy tarix, islom madaniyati, muqaddas ziyoratgohlar, butun dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan olimlar, tarixiy arxitektura, milliy madaniyat, folklyor, moddiy va nomoddiy me‘ros jihatlaridan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi.

Sport sohasida ham O‘zbekistonda ko‘plab olimpiya, jahon va mintaqaviy chempionlar va sport ustalari yetarlicha. O‘zbekiston boks, kurash, shaxmat maktablari butun dunyoda o‘zining nufuziga ega. Parij-2024 olimpiadasidagi O‘zbek sportchilarining ishtiroki butun dunyoda olqishlar bilan kutib olindi. 2025-yili O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasi tarixda birinchi marotaba 2026 yuli AQSH, Meksika va Kanadada bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatiga chiqdi. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo xalqlari uchun katta bayram bo‘ldi.

Bugungi kunda o‘z o‘yini bilan O‘zbekistonni dunyoga tanitayotgan eng mashhur futbolchimiz bu shubhasiz Abduqodir Xusanov hisoblanadi. U 2025-yili 20-yanvar kuni rasman Fransiyaning Lans klubidan Angliyaning Manchester City klubiga o‘tib, Angliya premier ligasida to‘p surayotgan birinchi o‘zbek futbolchisiga aylandi. Qisqa vaqt ichida u o‘zining intizomi, harakatchanligi, mahorati, o‘z ustida ishlashi, kamtarligi va boshqa jismoniy va aqliy hususiyatlari evaziga dunyoning eng kuchli chempionatining top klublaridan biri bo‘lgan Manchester City da asosiy himoyachilardan biriga aylanib ulgurdi. Klubdagi qisqa muddatli faoliyati natijasida Anduqodir Xusanov bir qator jamoaviy va shahsiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. (1-jadval).

Abduqodir Xusanov bugungi kunda nafaqat o‘zining maydondagi jismoniy va aqliy imkoniyatlari, balki kamtarligi, mehnatkashligi, intizomlilik va boshqa insoniy fazilatlar evaziga jahon futbol ishqibozlarining yoqimtoyiga aylanib ulgurdi. Bir qator mashhur sport nashrlari u haqda maqolalar nashr qilishayotgan bo‘lsa, ko‘plab futbol mutahassislari u haqida juda iliqlik va hurmat bilan fikr yuritishmoqda.²⁴⁹

Abduqodir Xusanov bugungi kunda hali Xabib Nurmagomedov singari mashhurlikga va sport olamidagi ikonaga aylanmagan bo‘lsa ham, lekin o‘z klubi tarkibidagi barqaroro o‘yini va yaqin kunlarda bo‘lib o‘tadigan jahon chempionatida O‘zbekiston safida ishtirok etishi orqali o‘zini atlet sifatida, shu bilan bir qatorda qadriyatli inson sifatida shaxsiy brendini yanada dunyoga tanitish imkoniga egan. Natijada esa, jahon hamjamiyatida nafaqat individual shaxs, balki butun boshli millat va mamlakat haqida ijobiy taassurot uyg‘onishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tahlil natijalari asosida Dog‘iston tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1) O‘zbekistonda “Sport elchisi” dasturini yaratish. Dunyoga mashhur sportchilarimizni ushbu dasturning yuzi sifatida xalqaro sport tadbirlarida milliy turizm brendi targ‘ibotchisi vazifasini bajarishlari lozim;

2) Raqamli storytelling kontentlar yaratish. “Abduqodir Xusanovning futbol yo‘li” va shu kabi mavzudagi bir qator video materiallar yaratish. Bunda

²⁴⁹ Uzbek Warrior: The Abduqodir Khusanov story. <https://www.mancity.com/features/khusanov-story/>
The rise and rise of Abduqodir Khusanov. <https://www.mancity.com/features/citymag/april2026/>

yurtimizning turistik salohiyatini ham namoyish etgan holda, tomoshabinlarda Abduqodir Xusanovning yurtiga borish hohishini uyg‘otish;

1-jadval

Abduqodir Xusanovning va Manchester City klubining erishgan natijalari²⁵⁰

Individual sport yutuqlari	“Xusanov Effekti”: Manchester City klubining Xusanov hisobiga erishgan yutuqlari
2026-yil mart oyida Angliya Premyer-ligasining eng kuchli o‘yinчилari (TOP-6) qatoriga kiritildi	Klubning raqamli platformalarida O‘zbekistondan 26 milliondan ortiq ko‘rishlar qayd etildi
2026-yil mart oyida Manchester City muxlislari tomonidan o‘yning eng yaxshi o‘yinчisi deb topildi	Global auditoriya tarkibida O‘zbekiston 4-o‘ringa ko‘tarildi
2026-yilda Angliya Liga Kubogi g‘olibi bo‘ldi	Klubning rasmiy platformalarida qariyb 1 million faol o‘zbek foydalanuvchi shakllandi
Asosiy tarkibda barqaror o‘yin ko‘rsatib, yuqori darajadagi ishonchga ega bo‘ldi	O‘zbekistonda klub muxlislari soni 500% ga oshdi
Transfer qiymati qisqa muddatda 40 mln. yevrodan 85 mln. yevrogacha oshdi	Klub o‘yinlarini bevosita tomosha qilish imkonini beruvchi turistik safarlarga talab qariyb 900% ga oshdi
Osiyoning eng qimmat futbolchilaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda	“Artel” kompaniyasi bilan xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi

3) Yurtimiz bo‘ylab mahsus “sport marshrutlar”ini yaratish. Sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ulot-yeg‘inlari o‘tkazish uchun ixtisoslashtirilgan mahsus “sport qishloqlari” yaratish;

4) O‘zbekistonda o‘tkaziladigan turli sport tadbirlariga Abdulqodir Xusanov kabi sportchilarimizning mashhur jamoadoshlaridan “Influencer” sifatida targ‘ibot kompaniyalarini o‘tkazish.

Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tish lozimki zamonaviy turistlarni jalb qilish uchun faqatgina tarixiy obidalar yetarli emas, unga o‘sha hududning qadriyatlarini muttasil targ‘ib etuvchi “tirik qahramonlar” kerak. Dog‘iston misolida shuni ko‘rdikki mashhur sportchilardan “soft power” sifatida foydalanish, minglab dollarlik marketing kompaniyalaridanda samaraliroq bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda bu kabi sportchilar mamlakat xalqaro imijini aks ettiruvchi strategik resurs sifatida talqin qilinishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida bunday rolga asosiy da’vogar sifatida Abduqodir Xusanovni taklif etishimiz mumkin

²⁵⁰ Muallif tomonidan ochiq internet manbalari asosida tayyorlandi. <https://kun.uz/en/news/2026/02/17/the-khusanov-effect-how-an-uzbek-defender-redefined-manchester-citys-global-marketing#:~:text=While%20club%20officials%20were%20confident,has%20attracted%20major%20corporate%20interests.https://www.manchestereveningnews.co.uk/sport/football/football-news/how-abdukodir-khusanov-putting-man-33419720>